



## XALQARO REYTING AGENTLIKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF INTERNATIONAL RATING AGENCIES IN PROMOTING INVESTMENT ACTIVITY

<sup>1</sup>*Yuldoshova Manzura  
Ollashkurovna*

<sup>1</sup>*Fan va texnologiyalar universiteti, "Moliya va moliyaviy  
texnologiyalar" kafedrası PhD, dotsent v.b.*

### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Mazkur maqolada mamlakatimizda xalqaro reyting agentliklarining ishtirokini rivojlantirishda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning ahamiyati hamda kelgusidagi masalalari ko'rib chiqilgan. Investitsiya faoliyatini amalga oshirishda reyting agentliklarining faoliyati tahlil qilingan va ularning faoliyati bo'yicha tegishli xulosalar shakllantirilgan.

*Eng.* - This article discusses the importance of investment activities in the development of the participation of international rating agencies in our country, as well as promising issues. When carrying out investment activities, the activities of rating agencies were analyzed and relevant conclusions were drawn about their activities.

### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *investitsiya, reyting agentliklari, investitsiya faoliyati, xalqaro reyting metodologiyasi, iqtisodiy erkinlik indeksi.*

❖ *investments, rating agencies, investment activity, international rating methodology, economic freedom index.*

### Kirish.

Mamlakatimiz o'z ijodiy salohiyatini yo'naltiruvchi muhim yo'nalishlardan biri mamlakatning jahon sahnasidagi qiyofasini yangilash bilan bog'liq bo'lib, bu uning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashda o'z aksini topmoqda. Shu maqsadda resurslar safarbar etilib, mamlakatda transformatsiya jarayonlarini boshqarishning zamonaviy yondashuv va usullari keng joriy etilmoqda hamda xalqaro reytinglardagi o'rnini holisona va to'g'ri baholashni ta'minlash bo'yicha maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar jadal davom ettirilmoqda. Biz birinchi marta kambag'allikni kamaytirish haqidagi qat'iy

qarorimizni ochiq e'lon qildik [1]. Bunga tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, investitsiya va biznes muhitini yaxshilash hamda zamonaviy infratuzilmani barpo etish, odamlarni yangi kasb-hunarlariga o'rgatish va aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish orqali erishmoqdamiz". Bu jumla bejizga emas albatta.

Dunyo amaliyotidan ko'rish mumkinki, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda jahon arenasida hamda xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati kattadir. Demak, bugungi kunda mahalliy va xorijiy investorlarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish hamda ularning huquqiy va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish,

xalqaro andozalar talablariga javob beradigan yangi tizim barpo qilish zarurati tug'ilmoqda. Ammo, yurtimizda mahalliy va xorijiy investorlarning faoliyatini xalqaro reytinglarda baholash uchun yetarlicha iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqilmagan.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Xalqaro reyting agentliklarining ishtirokini rivojlantirish borasida bir qator iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng ma'lumotlar keltirilgan. Misol uchun, A.A. Fatxullina har bir mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari borligini ta'kidlaydi, shuning uchun ularning ish faoliyati ham o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi [2]. U mintaqaviy darajadagi ishbilarmonlik faolligi indekslarini hisoblashda tabiiy sharoit, geografik joylashuv, tarixiy rivojlanish, madaniy an'analar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olishning muhimligini qayd etadi. Shu bilan, reyting natijalari mintaqaviy xususiyatlarni aks ettiruvchi yanada aniqlik va ishonchlilikka ega bo'ladi.

B.P. Borisova va I.V. Kachubeya tahriri ostidagi "Этюды в духе постмодерна" monografiyasida F. Kotlarning biznesga kirish falsafasi (2018) batafsil tahlil qilinadi [3, 4]. Unga ko'ra, biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun kompaniyalar nafaqat iqtisodiy foyda, balki mijozlar va jamiyat uchun real qiymat yaratishlari lozim. Kotler shuningdek, marketing va strategik yondashuvlar orqali tashkilotning barcha bo'limlarida muvofiqlikni ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va resurslardan samarali foydalanishni ham muhim element sifatida ko'rsatadi.

N. Jumayevning fikricha, avvalo, "reyting nima uchun kerak" degan savol tabiiy ravishda tug'iladi. U reytinglarning turlicha bo'lishi mumkinligini, masalan, biznes reytingi, investitsiyaviy jozibadorlik reytingi va boshqa turlarini ta'kidlaydi. Shuningdek, har qanday reytingning yuqori darajada bo'lishi mamlakat yoki tashkilotning iqtisodiy faoliyatini

baholashda muhim mezon ekanligini bildiradi. Reytinglar nafaqat raqamli ko'rsatkichlar, balki mintaqaviy va global iqtisodiy tendensiyalarni tahlil qilish va investitsiya imkoniyatlarini baholashda ham foydalaniladi [5].

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqola mavzusi mamlakatimizda xalqaro reyting agentliklarining ishtirokini rivojlantirishda investitsiya faoliyatini amalga oshirishning ahamiyatiga qaratilgan bo'lib, avvalo mavzu dolzarbligi asoslandi va ushbu soha bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Reyting agentliklarining biznesni yuritish va uni baholashga qo'yilgan indikatorlarining mamlakatimizdagi holati tahlil qilindi. Tahlil jarayonida qiyosiy tahlil, tuzil-maviy tahlil va monografik tahlil usullardan foydalanildi hamda takliflar ishlab chiqildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Mamlakatda davom etayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish hamda xalqaro reytinglarda mamlakat pozitsiyasini takomillashtirish maqsadida 2019-yil 25-fevral sanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasi pozitsiyasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida [6]"gi farmoni qabul qilindi. Shu bilan birga, ayrim vaziyatlarda reytinglar bilan ishlash yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan so'rovlar natijalarida ko'plab islohotlar to'liq aks etmayotganligi sababli ustuvor xalqaro reyting va indekslarda mamlakat past pog'onalarda qolmoqda.

Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini va xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash, davlat organlari va tashkilotlarida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy etish hamda 2026-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga

oshirish maqsadida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha Respublika kengashi tashkil etildi.

Kengashning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ❖ Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tizimli tahlil qilib borish va turli sohalarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarga ta'sirini baholash;

- ❖ Xalqaro reyting va indekslarda mamlakat pozitsiyasini yaxshilash maqsadida

normativ-huquqiy hujjatlarni kompleks baholash;

- ❖ Kengash ishchi organlari orqali xalqaro reyting va indekslarda mamlakat pozitsiyasini yaxshilashga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishda tizimli xalqaro hamkorlikni ta'minlash.

Xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari (KPI) ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari (KPI)\***

T/r	Toifalarning nomlanishi	Joriy holat	2020-yil	2022-yil	2030-yil
1	Jahon banking statistika salohiyat indeksi	64,4	67,8	74,4	100
2	Iqtisodiy erkinlik indeksi	57,2 (114-o'rin)	57,2	63,6	82,3
3	Bozorlarning ochiqdigi - Savdo erkinligi	67,6	67,6	68,8	73,6
3.1	Investitsiyalar erkinligi	20	20	40	80
3.2	Moliyaviy erkinlik	20	20	40	80

\*O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda Xalqaro valyuta jamg'armasining rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, inson huquqlarini himoya qilish, aholining turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faoliyatda erkinlikni ta'minlash, sud-huquq sohasidagi moddiy va protsessual normalarni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar mamlakatning xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlarining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, "Iqtisodiy erkinlik indeksi" tarkibidagi "Bozorlarning ochiqdigi" indeksi bo'yicha "Investitsiyalar erkinligi" 2030-yilgacha 20 foizdan 80 foizga yetkazilishi ko'zda tutilgan.

Pandemiya ta'sirida iste'mol va investitsion talabning pasayishi, asosan, xizmat ko'rsatish va ayrim iste'mol tovarlari ishlab chiqarish sohasiga, jumladan, turizm, savdo va umumiy ovqatlanish, transport sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, pandemiya oqibatlarini yumshatish va iqtisodiy

faollikni tiklashga qaratilgan choralar iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtiruvchi omil bo'ldi.

Iqtisodiy faollikning tiklanishi natijasida tashqi, jumladan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ijobiy o'sish sur'atlariga qaytishi, to'lov balansining manfiy saldosi moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Jahon banki klassifikatsiyasiga ko'ra, O'zbekiston o'rta-past daromadli davlatlar guruhiga kiradi va mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining 1 foizga oshishi aholiga to'g'ri keladigan YaIMni real hisobda 0,18 foizga oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, kelgusida aholiga to'g'ri keladigan daromadlarni oshirishda, birinchi navbatda, iqtisodiyot tarmoqlariga jalb qilinadigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish dolzarb hisoblanadi.

Ko'pgina rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda inflyatsiya darajasi amaldagi foiz stavkalaridan yuqori bo'lib, milliy valuta kursi beqaror bo'lsa, investorlarning real daromadlari yuqori xatar darajasini qoplamaydi va natijada mamlakatga kapital oqimi cheklanadi.

Kapital va moliya bozorlarining rivojlanmagan hozirgi sharoitida pul bozori foiz stavkalari indeksi iqtisodiyotda moliyaviy instrumentlar narxini baholash uchun asosiy "benchmark" vazifasini o'taydi. Markaziy bank tomonidan banklararo pul bozori foiz stavkalari rasmiy web-sahifasi va telegram kanali orqali kunlik e'lon qilinmoqda, kelgusida esa pul bozori indeksini shakllantirish va doimiy e'lon qilish orqali iqtisodiyot subyektlariga resurslar narxi shakllanishi haqida signal berish kuchaytiriladi.

Shuningdek, ushbu yo'nalishda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ko'magida "Pul bozorini takomillashtirish bo'yicha ishchi guruhi" tashkil etilgan bo'lib, xorijiy ekspertlar ishtirokida pul bozori indeksini hisoblash metodologiyasi ishlab chiqilmoqda.

Mamlakat suveren kredit reytingi ilk marotaba Fitch Ratings va S&P Global Ratings xalqaro reyting agentliklari tomonidan "BB-" (barqaror prognoz) bahosi bilan 2018-yil 21-dekabr va 2018-yil 22-dekabr kunlari kiritildi. Mazkur reyting ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasining ilk suveren xalqaro obligatsiyalarini 2019-yil 14-fevral sanasida London xalqaro birjasida taklifga nisbatan talabning qariyb 8 barobar oshishiga olib keldi.

Iqtisodiy indekslarda ijobiy natijalarga erishish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshiradi, ish-sizlik darajasini pasaytiradi va aholining turmush darajasini yaxshilaydi.

Iqtisodiy erkinlik indeksida o'rni oshayotgan mamlakatlarda kambag'allik darajasi pasayadi. Shu indeksda ijobiy natijalar ko'rsatayotgan iqtisodiyotlar yaxshiroq ta'lim tizimi, sog'liqni saqlashni yaxshilash va aholisi uchun yuqori turmush darajasiga erishadi.

Yana bir indeks – Afrika Rivojlanish Bankining Afrika vizalarining ochiqqligi indeksi. Bu qit'a bo'ylab odamlarning erkin harakatlanishini qo'llab-quvvatlaydi va qaysi Afrika davlatlari yaxshilanishlarni ko'rsatayotgani kuzatiladi. Shu indeks joriy qilingandan beri, bir qator davlatlar, jumladan Gana va Efiopiyada, afrikaliklar chegara postiga yetib borganda viza olishlariga ruxsat berilmoqda.

Mamlakatning xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga oid reytinglari rivojlanish darajasi va amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini aks ettiradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Tadqiqot jarayonida mamlakatda investitsiya faoliyatini amalga oshirishda xalqaro reyting agentliklarining ishtirokini rivojlantirishga bevosita ta'sir etadigan bir qator muammolar aniqlangan. Bular quyidagilardan iborat:

Mamlakatda xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan so'rovlarda ko'plab o'zgarishlar aksini topmayotgani oqibatida ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston past pog'onalarda qolmoqda;

Mamlakatning investitsion jozibadorligi va xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash, davlat organlari va tashkilotlarida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy qilishda ayrim kamchiliklar mavjud;

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tizimli tahlil qilib borish, turli sohalarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o'rnini yaxshilashga xizmat qilishini ta'minlash, ushbu yo'nalishdagi ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan muammolar mavjud.

Shuningdek, mamlakatda investitsiya faoliyatini amalga oshirishda xalqaro reyting agentliklarining ishtirokini rivojlantirish

yuzasidan quyidagi choralarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va moliya bozorida sog'lom raqobatni shakllantirish maqsadida xorijiy Private Equity Fondlarini respublikaga jalb qilish;

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda "FDI Regulatory Restrictiveness Index" bo'yicha mamlakat iqtisodiyotida investitsiya muhitini va investitsion jozibadorlikni rivojlantirish;

Mamlakatning investitsion jozibadorligi va xalqaro maydondagi imidjini mustahkamlash, davlat organlari va tashkilotlarida xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini amaliyotga joriy qilish;

Xalqaro reyting va indekslarning zarur ko'rsatkichlarini qayd etishga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqish, shuningdek, reyting va indekslarni e'lon qiluvchi tashkilotlar va ularni tuzishda foydalaniladigan axborot manbalari bilan hamkorlik qilish mexanizmlarini ishlab chiqish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2020-yil 23-sentabr.
2. Фатхуллина А. А. Деловая активность как многоуровневая категория // Актуальные проблемы экономики и права. 2022. № 1(29). С. 166–172.
3. Борисова Б. П., Качубея И. В. Под научной редакцией. "Этюды в духе постмодерна": сборник статей в форме монографии. Москва–Берлин, 2016.
4. Kotler P. Philip Kotler's contributions to marketing theory and practice. – 2011.
5. Jumayev N., Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. "O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni nima uchun kerak?" "Xalq so'zi" gazetasi. 2020-yil 4-iyun.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25-fevral 2019-yildagi PQ-4210-son.